

Date: 25th October-2025

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR: INNOVATION
USULLARNING AHAMIYATI

Adizova Nilufar Quvondiq qizi

Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi

Maktabgacha ta'lim metodisti

Adizovanilufar331@gmail.com

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizmining boshlang'ich va muhim qismi hisoblanadi. Bolalar maktabgacha yosh davrida har tomonlama jadal rivojlanadilar. Har tomonlama rivojlangan, barkamol kelajak avlodni yetishtirishning asosiy sharti maktabgacha yoshdanoq sifatli ta'lim berishdir. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Muhtaram prezidentimiz tomonidan pedagog xodimlarning kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishga qaratilgan farmonlari e'lon qilindi. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimidagi eng so'nggi islohotlar va innovatsion usullar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, islohotlar, innovatsion usullar, rivojlanish sohalari, ijtimoiy tarmoq, zamonaviy yondashuv, metodik mahorat kun, metodik mahorat soat, mobil malaka oshirish.

Abstract: Preschool education is considered the initial and important part of the continuous education system. Children develop rapidly in all aspects during the preschool age. Providing quality education from an early age is the main condition for raising a well-rounded and developed future generation. Currently, a number of reforms are being implemented in the preschool education system. Our esteemed president has announced decrees aimed at regularly improving the professional competence of pedagogical staff. This article presents the latest reforms and innovative methods in the preschool education system.

Keywords: Preschool education, reforms, innovative methods, areas of development, social network, modern approach, methodological skill day, methodological skill hour, mobile qualification enhancement.

Hozirgi global o'zgarishlar davrida ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosatining asosiy g'oyasiga aylangan. Jannatmakon O'zbekistoningda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, bu esa ta'lim-tarbiya tizimi asosiy zamin bo'lib qilishini anglatadi. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini kreativ fikrlaydigan, yuqori malakali tarbiyachilar va mutaxassislar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim sifatini yanada oshirish va ilg'or xorijiy tajribalarni ta'lim tizimiga joriy etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 152-sonli farmoni imzolandi. Ushbu farmonida maktabgacha ta'lim va

Date: 25th October-2025

umumiy o'rta ta'limning uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash, maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish, sohada faoliyat yuritayotgan xususiy sektor vakillarini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash, ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga qaratilgan vazifalar keltirilgan. 2025-2026 o'quv yilidan boshlab bolaning rivojlanish xaritasini maktabgacha ta'limni boshqarish axborot tizimida yuritish va elektron sertifikat berish tartibi yo'lga qo'yish rejalashtirilgan. 2025-yil 1-yanvardan boshlab maktabgacha ta'lim sohasida pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida hamda yuqoridagi farmonga asosan O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 8-noyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida malaka oshirishning "Metodik mahorat kun" va "Metodik mahorat soati" tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to'g'risida"gi 362-sonli buyrug'i ishlab chiqildi. Mazkur buyruq asosida respublikamizning barcha viloyat va tumanlarida tayanch maktabgacha ta'lim tashkilotlari belgilandi. Ilg'or pedagoglar saralanib mentor-trener sifatida o'qitildi va Metodik mahorat kuni va Metodik mahorat soati tadbirlarining o'quv materiallari (o'quv reja, o'quv dasturi, taqdimot, tarqatma materiallar, nazorat va baholash materiallari) Respublika muvofiqlashtirish kengashi tomonidan ishlab chiqildi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida direktor o'rinbosari lavozimi joriy etilib, ularning vazifasi belgilandi. Metodik mahorat kun doirasida direktor o'rinbosarlari tayanch maktabgacha ta'lim tashkilotida yig'ilishadi va ularga mentor tomonidan seminar o'tiladi. Metodik mahorat soati jarayonlarida esa direktor o'rinbosarlari seminardan olgan yangi bilim va tajribalarini o'z tashkilotidagi tarbiyachilarga ulashadi. Bu tadbirlarni tashkil qilishning asosiy maqsadi – maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy mahoratini oshirish, ijodiy ishlash va o'z bilimini doimiy boyitib borish, zamonaviy o'qitish metodikasi va axborot kommunikatsiya vositalaridan unumli foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 19-fevraldagi "Uzoq va chekka hududlarda joylashgan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun mobil malaka oshirish xizmatlarini joriy etish to'g'risida"gi 59-sonli buyrug'i ishlab chiqildi. Ushbu buyruq asosida olis hududlari mavjud bo'lgan viloyatlar uchun mobil avtobuslar berildi. Avtobus mashg'ulot olib borish uchun zaruriy barcha jihozlar bilan ta'minlangan. Bunday yangicha malaka oshirish usuli orqali olis hududlardagi tarbiyachilar ham zamonaviy usullar va innovatsion texnologiyalardan xabardor bo'lishmoqda. Albatta, bu ishlarning zahirida bitta maqsad-har tomonlama rivojlangan, barkamol insonni shakllantirish, ta'lim tizimini zamon bilan hamnafas holda rivojlantirish yotadi. Maktabgacha ta'lim bolaning hayotining dastlabki yillarida to'liq rivojlanishi uchun juda muhimdir. Bu bolalarga kelajakdagi ta'lim va shaxsiy muvaffaqiyat uchun asos bo'lgan muhim ko'nikmalarni kashf qilish, o'rganish va rivojlantirish imkonini beradigan muhitni yaratadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlar zamonaviy usullar va texnologiyalar asosida olib borilsagina o'z samarasini beradi. Hozirgi kunda bir qancha ta'lim strategiyalari yuqori natija bermoqda.

O'yinga asoslangan ta'lim:



Date: 25th October-2025

O'yin erta bolalik ta'limining ajralmas qismidir. O'yinga asoslangan ta'lim bolalarga atrofda dunyoni o'rganish, tajriba va tushunish imkonini beruvchi tuzilgan va tuzilmagan faoliyatni o'z ichiga oladi. O'yin orqali bolalar ijtimoiy, hissiy, aqliy va jismoniy jihatdan rivojlanadi.

Hamkorlikdagi ta'lim:

Hamkorlikdagi ta'lim bolalar umumiy maqsadga erishish uchun birgalikda harakat qiladigan guruh faoliyatini o'z ichiga oladi. Jamoada ishlash, muloqot qilish ko'nikmalari va jamoa tuyg'usini rivojlantiradi.

Integratsiyalashgan ta'lim:

Bu ta'limda mashg'ulot mavzusi hayotiy misollar yoki biror bir o'yin turi bilan bog'lanadi. Ushbu yondashuv bolalarga bilimlar qanday bog'langanligini ko'rishga yordam beradi va tushunchalarni umumiy tushunishga undaydi.

Ochiq havoda va tabiatga asoslangan ta'lim:

U an'anaviy sinf devorlaridan tashqariga chiqadi va bolalar ta'limi uchun tabiiy muhitning afzalliklarini o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv jismoniy faollikni, hissiy kashfiyotni va tabiiy dunyoni chuqurroq tushunish va qadrlashni rag'batlantiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun o'qitish usullari keyinchalik akademik va shaxsiy o'sish uchun zamin yaratishda erta bolalik ta'limining ahamiyatini umume'tirof etishini namoyish etadi. Ushbu usullar yosh bolalarning turli ehtiyojlari va qiziqishlarini qondirish uchun puxta ishlab chiqilgan, shu bilan birga o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni uyg'otadi va ta'limga ijobiy nuqtai nazarni uyg'otadi. Shu bilan birga, bu metodlarning samarali tatbiqi pedagoglarning malakasini oshirishni talab qiladi. Maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, bolalarga o'z salohiyatlarini to'liq ochib berishga yordam beradi va ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga mustahkam poydevor yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 152-sonli farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 8-noyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida malaka oshirishning "Metodik mahorat kun" va "Metodik mahorat soati" tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to'g'risida"gi 362-sonli buyrug'i.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PQ-4312-sonli Qarori. 2019 yil 8 may.
4. Raxmonova G.U. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'yin texnologiyalari orqali kasb-hunarga qiziqishlarini shakllantirish: Ped.fan.(PhD).diss. –T.: 2023.
5. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent, 2018.

